

## AMALIY MASHG'ULOTLARDA INSTRUKTAJ METODIDAN FOYDALANISH

I.Karimov

*Qo'qon DPI Texnologik ta'lim kafedrası professori v/b. p.f.n.*

**Annotatsiya:** *Maqolada Texnologiya faniga oid amaliy mashg'ulotlarda instruktaj metodidan foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalar berilgan.*

**Tayanch so'zlar:** *instruktaj, mashq, amaliy ish, laboratoriya ishlari.*


**Аннотация:** *В статье даны методические рекомендации по использованию метода инструктажа на практических занятиях при обучении технологического образования.*

**Ключевые слова:** *инструктаж, упражнения, практическая работа, лабораторная работа.*

**Annotation:** *The article provides methodological recommendations for using the instruction method in practical classes when teaching technological education.*

**Key words:** *instruction, exercises, practical work, laboratory work.*

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan Texnologiya o'quv fani darslarining asosiy qismini, ya'ni 75-80 % ini amaliy mashg'ulotlar tashkil etadi. Bunda amaliy mashg'ulotlar mashq, amaliy ish, laboratoriya ishlari kabi ko'rinishlarda olib boriladi. Buni klaster usulida quyidagicha ifodalash mumkin:



Quyida shular haqida to'xtalib o'tamiz.

**Mashqlar.** Texnologiya o'quv fanidan ta'lim jarayonida har bir yangi ish usulini o'rganishni qisqa muddatli mashqdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Bu mashqlar shartli ravishda ta'limiy mashqlar deyiladi. Amaliy mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilar turli xil detal va buyumlar tayyorlaydilar, mehnat usuli va harakatlarini o'rganish bo'yicha mashq qilishni davom ettiradilar. Mashqlar ish o'rnini tashkil qilish, asboblarning tuzilishini o'rganish va sozlash, dastlabki mehnat usullari va harakatlarini o'zlashtirish, ko'nikma va malakalarni takomillashtirish kabi mashqlarga bo'linadi, ular qo'yilgan o'quv maqsadi va amalga oshirish sharoitiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Mashqlarga ta'lim metodi sifatida quyidagi bir qator didaktik talablar qo'yiladi:

1. Mashqlar o'quvchilarning ongli faoliyatiga asoslanadi. Ko'nikma va malakalarni hosil qilishda ong katta rol o'ynaydi. Binobarin texnologiya fani mashg'ulotlari tajribasida "Muskullarni o'rgatish"ga ongdan tashqari o'rinish (MMI tizimi) muvaffaqiyatlarga olib bormasligini ko'rsatgan edi. Ko'nikma, malaka bevosita shakllanishidan oldin shu haqda o'quvchi ongida tasavvur hosil bo'ladi. Uning tasavvuri qanchalik to'g'ri, aniq bo'lsa, uni shunchalik tez va aniqroq egallay oladi.

2. Mashqlar va ularning qismlari (elementlari)ni ortib boradigan tartibda joylashtiriladi. Har bir mexanik operatsiyada bir xil elementlar (usullar, harakatlar) o'zi ko'p uchraydi, ammo operatsiyaning o'zi qiyinligi bo'yicha farq qiladi. Masalan, zubilo yordamida metallarni qirqish operatsiyasi quyidagicha bajariladi: o'quvchi chap qo'lida zubiloni, o'ng qo'lida bolg'ani ushlab, zubiloga uni o'tkir uchi kesilgan zagatovkadan yupqa metall qatlamini uzish-uchirish uchun uradi. Bunda bolg'a bilan ishlash qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi: o'quvchi oldin bolg'a harakati, urish kuchini to'g'ri yo'naltirishni, yuzani to'g'ri kesishni o'rganib olishi kerak. U ana shu elementlarning hammasini o'rganib olishi kerak. Shu sababli bu texnologik operatsiyadan oldin bir qator boshqa soddaroq operatsiyalarni bajarish kerak. Masalan, metallarni to'g'rilashga oid mashqlar bolg'a bilan ishlashda urish kuchini va yo'nalishini to'g'ri taqsimlashni o'rganishga imkon beradi, parchinlash mashqlari o'quvchilarga zarur, bexato urish malakasini egallash uchun asos bo'ladi.

3. Mashqlar paytida o'quvchilar o'z mehnat harakatlarini nazorat qilishlari kerak. O'qituvchi o'quvchilarga avvaldanoq mehnat usullari, harakatlari, operatsiyalarni to'g'ri bajarishlarini o'rgatib borishi kerak. O'quvchilar o'zlarini nazorat qilishga jalb etilsa, ya'ni ular o'z-o'zini nazorat qilishni amalga oshirsa, bu talab samaraliroq bajariladi. O'qituvchi mehnat usullarini bajarish koidalarini o'rgatish bilan birga ularni bajarish to'g'riligini aniqlash yo'llarini va mezonlarni ham o'rgatib ketadi. O'z-o'zini nazorat qilish o'quvchilarning asosiy o'quv vazifasi bo'lgan mehnat malakalarini egallashga mos kelishi kerak.

Mashqlar davomida texnika vositalari, trenajyorlardan foydalanish ham unumli bo'ladi. Trenajyorlar o'quvchilarga o'z mehnat harakatlarida birikkan kuch, tezlik yoki fazoviy parametrlaridan og'ishini bilib olishlarida yordam beradi, ya'ni o'zlarini-o'zlari nazorat qilishlari uchun sharoit yaratadi. Masalan, arralash, egovlash operatsiyalarini o'rgatish uchun trenajyorlar mavjud.

Amaliy ishlar. Amaliy ishlar bevosita mashqlarning davomi bo'lib, o'quvchilar mashq davomida o'rganib olgan ish amallari va usullarini o'quv rejasida ko'rsatilgan birorta detal yoki buyumni tugal ko'rinishga keltirish jarayonida qo'llaydilar. Shuning uchun ham o'quvchilar tomonidan tayyorlanadigan detal yoki buyumlarning sifatli bo'lishi, ularni o'z vaqtida tayyorlanishi bevosita o'quvchilar tomonidan ish amallari va usullarini qanchalik o'rganib olishlariga va amalda qo'llay olishlariga bog'liqdir.

Amaliy ishlarda o'quvchilarning buyum yoki detal tayyorlashga oid ish harakatini tartibga solishda odatda texnologik kartalardan foydalaniladi.

Laboratoriya ishlari. Amaliy mashg'ulotlarning samaradorligini oshirish uchun avvalo o'quvchilarni ustaxonalardagi mashg'ulotlarda ishlov beriladigan turli materiallar, ishlatiladigan asbob-uskunalarining turlari, tuzilishi hamda qo'llanilishi bilan tanishtirish zarur. Bunday mashg'ulotlar laboratoriya ishlari shaklida tashkil qilinadi.

Laboratoriya ishlarining oson yoki qiyinligi o'quvchilarning yoshiga va mavjud moddiy bazaga qarab har xil bo'ladi. Masalan yog'ochlarning namligini aniqlash yoki qattiqligini sinash o'quvchilarning qo'lidan keladi.

Laboratoriya ishlarini bajarishda hozirgi zamon asboblari va moslamalaridan foydalanish ma'qul. Ishlarni bajarishda eng muhimi o'quvchilarning fan asoslari bo'yicha olgan bilimlaridan foydalanishdir. Agar laboratoriya ishlari unumli mehnat bilan bog'liq bo'lsa, o'quvchilarning ularga qiziqishlari ortadi. Masalan o'quvchilar biror metal materialning qattiqligini shunchaki aniqlashni emas, balki yasaladigan detal uchun tegishli qattiqlikdagi va kattalikdagi metal zagotovka tanlay olishni ham bilishi maqsadga muvofiqdir.

Laboratoriya ishlarini ishning sodda yoki murakkabligiga qarab, mavjud sharoitni hisobga olgan holda yakka (individual), nimguruhli (zveno) va yoppa (frontal) ko'rinishlarda o'tkazish mumkin. Texnologiya fani bo'yicha bunday amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda asosan instruktaj, ya'ni yo'l-yo'riq ёки yo'riqnama ko'rsatish metodidan foydalaniladi.

Instruktaj deb o'quvchilar bajarishi zarur bo'lgan ish amallari va usullarini avval o'qituvchi (yoki usta) tomonidan tushuntirib berilishi va so'ngra amalda bajarib ko'rsatilishiga aytiladi.

O'quvchilarga mehnat faoliyati va ish usullarini bunday holatda, ya'ni ko'rsatmali holatda tushuntirish ular tomonidan o'quv topshirig'ini ongli ravishda anglashga hamda ish faoliyatini to'g'ri va xavfsiz bajarish bo'yicha tasavvur hosil qilishga imkon beradi. Natijada o'quvchilarning amaliy faoliyatini to'g'ri tashkil etishga erishiladi.

Odatda texnologiya faniga oid mashg'ulotlarda qo'llaniladigan instruktaj metodi quyidagi turlarga bo'linadi:

1. O'tkazish davriga ko'ra – kirish, joriy, yakuniy.
2. O'tkazish shakliga ko'ra – yakka (individual), nimguruh (zveno), yoppa (frontal).
3. O'tkazish usuliga ko'ra – og'zaki, yozma, aralash.


Kirish instruktaji mashg'ulot boshida yangi mehnat operatsiyasini o'rtatishda qo'llaniladi. Ya'ni har bir amaliy ishni bajarish bo'yicha kirish instruktaji bo'ladi. Bunda mehnat usullarini va amallarini normal hamda sekinlashtirilgan holda tushuntirish va bajarib ko'rsatish orqali ishni bajarish tartibi namoyish qilinadi; o'zini nazorat qilish va xavfsizlik qoidalariga riof qilish tushuntiriladi. Bunda o'quvchilar ish amallari (operatsiya)ning ayrim qismlarini, masalan asbobni ushlash, ish holatida turish

kabi harakatlarni bajarishni o'rganadilar. Har bir o'rganilayotgan element oldingisining o'rnini olmay, balki unga qo'shib borishi, bir-biriga bog'lanishi, yagona zanjir hosil qilishi zarur bo'ladi.

Mehnat usullarini bajarishdagi xatolarni tuzatish bo'yicha dars davomida joriy instruktaj olib boriladi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarning bajarayotgan ishlarini kuzatib boradi, xatoga yo'l qo'yayotgan o'quvchilarning ishiga e'tibor beradi. Ishni vaqtincha to'xtatib, ularning noto'g'ri ishlash sabablarini izohlaydi. Shu asosda hamma o'quvchi bilan suhbat o'tkaziladi. So'ng o'qituvchi xulosa qilib, ishni to'g'ri usullarini yana bir bor ko'rsatadi, xatoga yo'l qo'ygan o'quvchining usullarni xotirada tiklashi, shunda ishni davom ettirishga ruxsat berishdan iborat bo'ladi.

Dars oxirida o'tkaziladigan yakuniy instruktajda o'quvchilarning bajargan ishlari namoyish qilinadi va ularning sifati tahlil etiladi, yutuq va kamchiliklari ochib beriladi, shu asosda o'quvchilarga baho qo'yiladi.

Instruktaj turlarini klaster metodi orqali quyidagicha tasvirlash mumkin:



Instruktaj – darsning bir qismi (elementi)dir. Instruktaj jarayonida bir nechta ta'lim metodlaridan foydalaniladi. Bunday metodlar mehnat usullarini namoyish qilish va ularni bajarish qoidalarini tushuntirish; texnik masalalarni qo'yish o'quvchilar o'qituvchi topshirig'ini qay darajada tushunganliklarini aniqlaydigan suhbat kabilardan iborat bo'lishi mumkin. Bunda metodlar o'zaro chambarchas birikadi, ularning birikuvini (kombinatsiyasi) esa ma'lum bir tizimni hosil qiladi. Instruktajga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Instruktaj jarayonida ta'limning boshqa turli metod va usullaridan umumli foydalanish.

2. Instruktaj mazmunini oldindan aniqlab olish. Agar o'qituvchining o'quvchilar oldiga qo'ygan topshirig'i ularga tushunarli bo'lmasa, o'quvchilar uni bajarish sharoitini ko'pincha buzadilar, chunki ular buni nimaga olib borishini bilmaydilar. Shuning uchun o'qituvchining har bir talabi asoslanishi kerak.

3. Instruktajning to'laligi va instruktajni qismlarga ajratish. Mehnat topshirig'ining ason yoki qiyinligini, topshiriqni qanday bajarilayotganligiga qarab instruktajni qismlarga ajratib borish lozim.

4. Instruktaj yordamida o'quvchilar o'z faoliyatini nazorat qila olsinlar. Bu talabni bajarmay, o'quvchilarning mustaqilligiga erishib bo'lmaydi. Mustaqillik esa o'quvchilarda amaliy mehnat va ko'nikma, malakalarini hosil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida bayon etilgan ma'lumot va tavsiyalarga asoslanib, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Texnologiya o'quv fanida amaliy darslar hajmi va mavqei jihatidan asosiy o'rinni egallaydi.

2. Amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilarga ishlab chiqarish asoslariga oid bilim beriladi, ko'nikma va malakalar singdiriladi. Bunda ularga turli xil asbob-uskunalar va ish usullari hamda buyumlar yasash usullari o'rgatiladi. Shuning uchun o'qituvchi har bir darsga puxta tayyorgarlik ko'rishi, darsda o'quvchilarning xavfsizligini ta'minlaydigan sharoitlarni yaratishi kerak.

3. Texnologiya o'quv fanidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazishning bir qator shakllari mavjud. Bular jumlasiga mashq qilish, amaliy ish, laboratoriya ishi kabilar kiradi. Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishdagi asosiy metod – instruktaj metodidir. Bu metod namoyish qilish va illyustratsiya metodlari bilan qo'shib olib borilsa darslarning samaradorligi ta'minlanadi.

4. Amaliy mashg'ulotlarda o'qituvchi o'quvchilarni har bir ishni, mehnat topshirig'ini mustaqil va ijodiy bajarishga odatlantirib borishi zarur. Buning uchun darsda o'qitishning turli faol usullarini qo'llashga to'g'ri keladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOT:**

1. Karimov I. Texnologiya ta'limi metodikasi: O'quv qo'llanma. T., 2021.

2. Muslimov N.A. va b. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi va kasb tanlashga yo'llash. T., 2014.

3. Karimov, I. I. (2021). Technology of system-targeted management of pre-competitive training of highly qualified track cyclists. *Eurasian Journal of Sport Science*, 1(2), 24-28.

4. Karimov, I. (2021). Developing Creative Activities In Technology Lessons: Using Some New Interactive Methods. *The American Journal of Applied sciences*, 3(04), 187-198.

5. Ismoil Karimov, . (2021). INTERACTIVE COURSES - AS A FACTOR TO INCREASE THE EFFICIENCY OF TEACHING TECHNOLOGY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(09), 150–158.

6. Karimov, I. (2020). STUDENTS CREATIVE ACTIVITY ON SOME VIEWS ON THE ORGANIZATION. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 8(9).

7. Отажонов, С., Ахмедов, Т., Каримов, И., Ибрагимова, Б., Ботиров, К., Эргашев, Р., ... & Абдусатторова, М. (2023). Изучение дефектов в фоточувствительных тонких пленках CdTe при деформации. Scientific Collection «InterConf», (150), 481-491.

8. Ахмедов, М. М., Каримов, И. И., & Рўзиматова, С. М. (2022). ДАРС ЖАРАЁНИДА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВ МУНОСАБАТЛАРИНИ АМАЛАГА ОШИРИШ ОМИЛЛАРИ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 39-43.